


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

*60811500-Zooinjeneriya (asalarichilik)
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari*

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Samarqand davlat veterinariya medisinası, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashtiruvchi kengashning 2022 yil «7» 07 dagi 3 - sonli yig‘ilishida ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil «19» 07 dagi 233 -sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

Mazkur malaka talabi “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalari”, Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60811500-Zooinqeneriya (asalarichilik) bakalavriat ta'lim yo'nali shining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>60811700-Ipakchilik va tutchilik</i> ta'lim yo'nali shi Malaka talabining qo'llanishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilar.....	4
1.2.	<i>60811500-Zooinqeneriya (asalarichilik)</i> ta'lim yo'nali shi bo'yicha bakalavr lar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	<i>60811500-Zooinqeneriya (asalarichilik)</i> ta'lim yo'nali shi bo'yicha bakalavr lar kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	<i>60811500-Zooinqeneriya (asalarichilik)</i> ta'lim yo'nali shi bo'yicha bakalavr lar kasbiy faoliyatlarining obyektlari	5
1.2.3.	<i>60811500-Zooinqeneriya (asalarichilik)</i> ta'lim yo'nali shi bo'yicha bakalavr lar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	<i>60811500-Zooinqeneriya (asalarichilik)</i> ta'lim yo'nali shi bo'yicha bakalavr lar kasbiy vazifalari	5
2.	60811500-Zooinqeneriya (asalarichilik) ta'lim yo'nali shi bo'yicha bakalavr larning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
	Bibliografik ma'lumotlar	8
	Kelishuv varag'i.....	9

1. 60811500-Zooinjeneriya (asalarichilik) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60811500-Zooinjeneriya (asalarichilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60811500-Zooinjeneriya (asalarichilik) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi

Malaka talabi 60811500-Zooinjeneriya (asalarichilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilar:

- mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv-uslubiy boshqarma (bo‘limi) boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shakslar.

1.2. 60811500-Zooinjeneriya (asalarichilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60811500-Zooinjeneriya (asalarichilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:

60811500-Zooinjeneriya (asalarichilik) –“Qshloq xo‘jaligi” ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib;

– asalarichilik sohasida erishilgan yangi ilmiy natijalar, yaratilgan ilmiy adabiyotlarni bilish;

– asalarichilik sohasida zamonaviy talablar asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish mezonlarini bilish;

– asalarichilik yo‘nalishi fanlarini o‘qitishda so‘nggi yillarda erishilgan yutuqlardan foydalangan holda innovation texnologiyalarni qo‘llay olish;

– asalarichilik fanlariga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;

–asalarichilik muassasalarida asalarichilik ishini rejalashtirish, tashkil etish va kasbga oid hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish;

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, hamda kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrлarning kasbiy faoliyat

sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha va o'zgarishlar muayyan talim yo'nalishilarining malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.

1.2.2. 60811500-Zoojneneriya (asalarichilik) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- asalarichilik sohasida mavjud bo'lgan dolzarb amaliy masalalarni yechish uchun yangi texnologiyalarni qo'llash;
- asalarichilik ishini tashkil etishda hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha mutaxassislarga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;

Asalarichilik ta'lif yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilarini talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat obyektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha va o'zgarishlarni mo'ayyan ta'lif yo'nalishlarining malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi va qo'yidagilarni qamrab oladi.

1.2.3. 60811500-Zoojneneriya (asalarichilik) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- - tashkiliy-boshqaruv
- - ishlab chiqarish-texnologik;
- - ilmiy-tadqiqot;
- - loyiha-texnologik;
- - servis xizmatini ko'rsatish (agrotexnik tadbirlar bo'yicha maslahatlar berish);

1.2.4. 60811500-Zoojneneriya (asalarichilik) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari

60811500-Zoojneneriya (asalarichilik) ta'lif yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;
- tashkilot, korxona va ularning alohida bo'linmalarini tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat faoliyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- birlamchi ishlab chiqaruvchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyatga tadbiq etish, ishlab chiqarish jarayonini sifatli tashkil etish.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- Asalarichilik sohasiga tegishli texnologiya va texnik vositalardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisobga olish va baholash;

- korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investisiyalarni jalg qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;
- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;
- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;
- loyihamalar samaradorligini baholash;
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;
- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- Asalarichilikda olib boriladigan ilmiy ishlarda qatnishishlari shart ;
- Asalarichilikda tajriba variantlarida va qaytarilishlarni joylashtirish tadqiqotlarni olib borish, kuzatuvalr o'tkazish;
- ilmiy ish hisoboti uchun ma'lumotlar tayyorlash ;
- respublika va xorijda chop etilgan Asalarichilik oid ilmiy-texnik axborotlar manbalarini o'rGANISH;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rGANISH va tizimlashtirish;
- tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tadbiq etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60811500-Zoojinjeneriya (asalarichilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzARB masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo‘llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotni tayyorlashni, ma‘lumotlar bazasini yoritishni bilish;

- strategik va operatsion boshqaruva vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga etakchilik qilishni bilish;

- strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni taminlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- asalarichilikda so‘nggi yillarda tavsiya qilingan oziqlantirish va ularni rasionini tuzishni bilish;

- asalarichilikda naslchilik ishlari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo‘llarini bilish;

- asal va asal mahsulotlari, asal, mahsulotlarini qayta ishslash;

- asalarichilikda seleksiya ishining ilg‘or texnologiyalarini qo‘llash;

- asal mahsulotlarini ishlab chiqish, saqlash va zamonaviy qayta ishslash texnologiyalarini qo‘llash;

- asalarichilikda hisob-kitobi va hisoboti hujjatlaridan foydalangan holda tuman, shahar, viloyat yoki Respublika bo‘yicha asalarilar hamda ularning oila sonlarini monitoringini olib borish;

- loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- ishlab chiqarish muhiti, bozor va unga xos xatarlarni, raqobot muhitini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- boshqaruva qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq boshqaruva vazefalariga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruva modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;

- yangi tashkilotlarni (faoliyat yo‘nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- tegishli bakalavriat yo‘nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo‘yicha magistraturada oliy ta’limni davom ettirishga;
- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan tadbirlarini amalga oshirish uquviga ega bo‘lish;
- yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kontseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, kredit, modul, bakalavriatning o'quv reja va o'quv dasturi, profil, o'qib-o'rghanish natijalari, o'quv sikli, konsalting, ipakchilik, malaka talablari, qo'llanish sohasi, o'quv davri, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, ishlab chiqarish va malaka amaliyati, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, loyihalash, tashkiliy boshqaruv, axborot-tahliliy faoliyat, ilmiy-tadqiqot faoliyati, tadbirkorlik.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILDI:

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti



Rektor X.B. Yunusov

2022 yil « ____ » _____

M.O'.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
huzuridagi Oliy ta'lifini rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni
tadbiq etish markazi

Direktor Sh. Yakubov

2022 yil « ____ » _____

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi
Veterinariya va chorvachilikni
rivojlantirish daylat qo'mitasi



Rektor B.T. Norqobilov

2022 yil « ____ » _____

M.O'.

Toshkent davlat agrar
universiteti

1-prorektor S.Y. Islomov

2022 yil « ____ » _____

M.O'.

Chorvachilik va parrandachilik
ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor A.A. Nurmatov

2022 yil « ____ » _____

